

SUN'iy INTELLEKTNING KELAJAGI: IMKONIYATLARI VA XAVFLARI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti o'qituvchi: Muqimova D.

Talaba: Umirqulova Sevinch

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning rivojlanish istiqbollari, ijobiy va salbiy tomonlari, shuningdek, bunday texnologiyalarni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha takliflar keltiriladi. Sun'iy intellektning kelajagi insoniyat uchun imkoniyatlari va muammolarni bir vaqtning o'zida taqdim etishi tufayli bu mavzu dolzarb va muhimdir.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt (SI), texnologiya rivojlanishi, imkoniyatlari, xavflar, etika, inson nazorati, ish o'rnlari, texnologik inqilob, SI xavfsizligi, SI manipulyatsiyasi, kelajak.

Annotation: This article will bring the prospects for the development of artificial intelligence, pros and cons, as well as proposals for the management and control of such technologies. Because the future of artificial intelligence simultaneously presents opportunities and problems for humanity, this topic is relevant and important.

Keywords: artificial intelligence (SI), technology development, opportunities, risks, ethics, human control, jobs, technological revolution, SI security, SI manipulation, future.

Sun'iy intellekt ko'p sohalarga kirib kelmoqda va bu yer yuzida eng qulay va tezkor "Gadget"lar sifatida foydalanib kelinmoqda. Bu turdag'i intellektlardan ko'p foydalanish turli xil salbiy qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Xo'sh, o'zi sun'iy intellekt nima? Uning imkoniyatlari va foydali jihatlari nimada? Shu bilan birga, uning xavf uyg'otadigan tomonlari ham mavjudmi? Uning kelajagi nimalardan iborat?

Sun'iy intellekt - informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlari tilni tushunish, tarjima qilish va shu kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan komputer tizmlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, mobil qurilmamizdagi turli xil o'yinlar, dasturlar, google tarjimon, lug'atlar ham sun'iy intellektga yaqqol misol bo'ladi. Faqat ularning qamrovi kichikroq bo'lib ma'lum bir yo'nalishda sizga yordam bera oladi. Ammo, keng qamrovli darsturlar ham mavjud, biroq ular ko'pincha ma'lum sohalarda, shuningdek, sanoat va shunga aloqador bo'lgan sohalarda kengroq ishlatiladi. Ya'ni,

amalga oshiradigan ishingizga qarab tegishli dasturlardan foydalanasisz. Bugungi kunda ayrim mamalakatlar “robot hamshiralari” dan, yetkazib berish xizmati uchun dronlardan, uzoq masofadagi yerlarni aniqlab, u yerlarni tekshirish uchun, suratga olish va hattoki politsiyachilarining ba’zi ishlarini ham shu kabi sun’iy intellektlar orqali bajarishmoqda. Shu o‘rinda savol tug‘lishi tabiiy, nega sun’iy intellektlardan foydalanish jadallahib bormoqda? Buning sababi nimada? Bu savollarga quyidagicha javob berishimiz mumkin.

- 1) Ishning unumдорлигі, я’ни ishslash koefsenti oshadi
- 2) Bulardan foydalanish tufayli aniqlikka va tezkorlikka erishamiz
- 3) Ma’lum miqdorda mablag‘ni ham tejaymiz

Bularning foydali taraflari talaygina, yuqorida aytganimdek asosiy qismlarini ta’kidlab o’tdim. Masalan, arxeologlarda bir “Gadget” turi bor. Bu yordamida ular g‘oyib bo‘lgan qadimgi shaharlarni xuddi o‘z avvalgi holatidagidek ko‘rinishga ega, ya’ni usha yerga gadgetni tutganda, u o‘zida o‘sha eski shahar muhitini shakllantiradi. Bu arxeologlarimizga ko‘proq ma’lumotga ega bo’lishlariga zamin yaratadi. Bularga misollar ko‘p, shunchaki dengizdan tomchi.

Gurunch ko‘rmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek, sun’iy intellektdan foydalanishning zararli va xavfli jihatlari ham yo‘q emas. Sun’iy intellekt hayotimiz uchun foyda yoki zarar? Bu kabi munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etmoqda. Ba’zilar ularni ommalashib odamlar o‘rnini egallashi, ommaviy ishsizlikni yuzaga keltirishi mumkin deb ta’kidlashadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida kompaniyalar sun’iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-hatarni sezmay qolishlari mumkin. Shuningdek, “Microsoft” rahbari Bill Geyts ham uning zarariga bir necha izohlar berdi. “Bir necha yillardan so‘ng ular ko‘p sohalarni egallab oladiki, natijada bizdan ham kuchayib ketadi-deydi”. Ya’ni ular o‘zlarini takomillashtirib olish xavfi mavjud, bu bizning kelajakimizga bolta urmay qo‘ymaydi. Bunga oid chet el filmlari ishlangan. Ma’lumotlarga ko‘ra: 2020-yilda 4.7mln aholi ishsiz qolishi mumkin. Shuningdek, ishsizlik g‘aznachilar, pochta xodimlari, hisobchilar va idora xizmatchilariga xavf solishi mumkinligi haqida aytilmoqda. Negaki, sun’iy intellekt ularning vazifasini bemalol bajara oladi. 2030-yilga borib, sun’iy intellekt mahsulotlar bozori qariyb 10 barobar oshib, 2 trillion dollarni tashkil qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, sun’iy intellektni rivojlantirishga sarmoya kiritish va ilmiy nashrlar soni bo‘yicha Xitoy va AQSH ilg‘or va yetakchi davlatlardan hisoblanadi.

Sun’iy intellektlarning nima uchun tez ommalashib ketmayotganining asosiy sabablaridan biri bu ularga bo‘lgan ishonchning pastligidir. Sun’iy intellektda

insonga xos bo‘lgan hissiyotlar mavjud emas, shu sababli ham ishlash koefsenti 100% emas. Ularga bo‘lgan ishonch bo‘lishi uchun ancha vaqt talab qiladi. Ammo, hozirgi yosh avlod bu sun’iy intellektga ega bo‘lgan ishonchi ham kam emas.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi turli tanqidiy va ijobiy fikrlarga qaramay, ularga bo‘lgan qiziqishlar, talablar ortib bormoqda. Bu insoniyat uchun foyda yoki zarar degan kabi fikrlar hali uzog davom etadi. Bunga aniqlik kiritish murakkab ish va bizdan anchagina vaqt talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.Russell, SJ, & Norvig, P. (2016). Sun’iy intellekt: zamonaviy yondashuv. Pearson Education Limited.
- 2.Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Chuqr o’rganish. MIT matbuoti.
- 3.Jordan, MI va Mitchell, TM (2015). Mashinani o’rganish: tendentsiyalar, istiqbollar va istiqbollar. 349 (6245), 255-260.